



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2026 Issue 2

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



O'zbek modern she'riyatida Abduvali Qutbiddinning o'rni va roli

D.E.Tangirova

JDPU O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. XX asr oxiri XXI asr boshlari jahon modernizm adabiyotida O'zbek modern she'riyati ham adabiyot maydoniga kirib keldi. Bu borada shoir Abduvali Qutbiddin ham alohida o'rin egalladi va qator she'riy asarlar yaratdi. Taqiqotlar o'zbek modern shoirlari orasida Abduvali Qutbiddin she'riyati o'ziga xos qator ichki xususiyatlar bilan farq qilishini ko'rsatdi va ajraib turishini isbotladi.

Kalit so'zlar: Modernizm. O'zbek modern she'riyati. O'zbek she'riyati. Abduvali Qutbiddin. She'riyatda shakl va vazn muammolari.

Abstract. At the end of the 20th century and the beginning of the 21st century, Uzbek modern poetry entered the field of literature. In this regard, the poet Abduvali Qutbiddin also occupied a special place and created a number of poetic works. Studies have shown that among modern Uzbek poets, the poetry of Abduvali Qutbiddin differs and is distinguished by a number of unique internal features.

Keywords: Modernism. Uzbek Modern Poetry. Uzbek poetry. Abduvali Qutbiddin. Problems of form and meter in poetry.

Аннотация. В конце XX века и начале XXI века узбекская современная поэзия вошла в сферу литературы. В этом отношении особое место занимал и поэт Абдували Кутбиддин, создавший ряд поэтических произведений. Исследования показали, что среди современных узбекских поэтов поэзия Абдували Кутбиддина отличается и выделяется рядом уникальных внутренних особенностей.

Ключевые слова: модернизм. Узбекская современная поэзия. Узбекская поэзия. Абдували Кутбиддин. Проблемы формы и метра в поэзии.

Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida modernizm va modern yo'nalishidagi ijodkorlar xususida so'z yuritilar ekan, Abduvali Qutbiddin nomi ham alohida tilga olinadi. Chunonchi, professor Umarali Normatov Ulug'bek Hamdamning "Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji" deb nomlangan adabiy suhbatida bugungi kun o'zbek modern shoirlaridan Abduvali Qutbiddin hamda Faxriyor ijodi haqida alohida to'xtab o'tilgan. Adabiy suhbatda U. Normatov Abduvali Qutbiddin qalamiga mansub "Izohsiz lug'at" dostonini "90-yillar yangicha she'riyatimizning debochasi" deya e'tirof etgan.

O'zbek adabiyotining dastlabki alomatlari Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Asqad Muxtor, Mirtemir kabi shoirlar ijodida ko'rina boshlagan modernizm she'riyatining o'zbek adabiyotidagi tadrijiy takomiliga ham qariyb bir asr bo'ldi. Ushbu davr mobaynida ko'plab ijodkorlar modern uslubiga murojat etgan bo'lsalar-da, xususan, she'riyatda Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro'zimuhammad, Go'zal Begim, Salim Ashur kabi sanoqli shoirlar ijodiga nisbatan modern istilohining qo'llanishi eng ko'p ko'zga tashlanadi.



Abduvali Qutbiddin XX asr o'zbek modern she'riyatining yirik vakillaridan biridir. Shoir dastlabki she'rlari bilanoq modernistik yo'nalishdagi ijodkor sifatida adabiyot maydonida paydo bo'ldi. O'z tadqiqotlarida shoir she'riyatining o'ziga xosligi haqida so'z yuritir ekan, jumladan, adabiyotshunos Sa'dullo Quronov shunday deydi: "A.Qutbiddin ijodida she'riyatimizda birinchilardan bo'lib modernistik tasvir to'laqonli namoyon bo'ldi. Undan oldingi shoirlarning she'rlarida muayyan modernistik vizual obrazlar yaratilgan bo'lsa, A.Qutbiddin butun tasvirni, butun manzarani modernistik uslubda "chizadi": "O'zi tanlaydigan asarlar g'oya va mavzusini tanlashda shoir Rauf Parfi yo'lidan bordi hamda qator takrorlanmas mavzulardagi asarlarni yaratdi hamda o'ziga xos ijodiy uslubni yuzaga keltirdi.

Shoirning individual poetik uslubini tadqiq qilgan adabiyotshunos olimah Mahfuza Davronova: "Abduvali Qutbiddin she'riyati quyuq obrazliligi, metafora va ramzlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. U universal she'riy shakllarga ko'p murojaat qiladi. Bir she'rda turlicha she'riy shakllarni ham qo'llayveradi. Ham diniy, ham falsafiy tasavvuf tushuncha, aqidalarni yaxlit holda aks ettirish Abduvali Qutbiddinning xos belgisidir." deya keltiradi. Darhaqiqat, Abduvali Qutbiddin serqirra ijodkor. U ham an'anaviy uslublar, ham zamonaviy talqinlarni o'z ijodida mujassam etgan hassos shoirdan biridir. Shoirning "Nayson", "Baxtli yil", "Bor", "Hayot kuychisi", "So'z chamani" kabi to'plamlari va ulardan joy olgan qator she'rlarini badiiylik nuqtai nazardan tahlil qilish orqali shoirning betakror taxayyul olami kengliklarini tasavvur eta olamiz.

Abduvali Qutbiddin o'z asarlarini badiiylik nuqtai nazaridan serjilo bo'lishini, eng avvalo, asarlariga mavzu tanlashdan boshlaganligini ilg'ash mumkin. Shoir asarlarida qator an'anaviy va yangi mavzular o'ziga xos tarzda yoritilganining guvohi bo'lamiz. Ular orasida, ayniqsa, adabiyotdagi abadiy mavzulardan biri bo'lmish ishq-muhabbat mavzusi salmoqli o'rin egallaydi. Chunonchi, shoir ijodidagi "Nafas", "Ey, Dilbarim", "Ushmundoq", "Tuyg'u" kabi turkum she'rlar shoirning ishq-muhabbat mavzusida yozilgan sara asarlaridir.

She'riy tahlil va talqinlardan Abduvali Qutbiddin ijodidada ishq-muhabbat mavzusiga birmuncha o'ziga xos yoritilganini ko'rish mumkin. Shoirning ushbu mavzudagi she'rlarida modern ifodaviylik an'anaviy poetik tasvirlarning sintezlashuvi diqqatni tortadi. Jumladan, shoir she'riyatida oshiqning ma'shuqaga visoliga intilish yoki yor go'zalligiga turli tashbehlar qo'llash va lirik murojaat qilish kabi an'anaviy uslublar yetakchilik qiladi. Shuningdek, shoir ijodidagi mumtoz badiiyatga xoslik to'la namoyon bo'lmaydi, ular ijodkor individual uslubi va u mansub bo'lgan modern ifodaviylik orqali tamoman yangilanadi. Masalan, 1990-yilda yozilgan ushbu she'rida quyidagicha o'rinlar mavjud:

Ikkimiz aylanib bir tomon bo'lsak,
Sen dilgir dildor-u men yomon bo'lsam,
Boshi tugun zamon bir tomon bo'lsa,



Daqqa so'rayman yorijon bo'lsang.
Ikkimiz aylana bir tomon bo'lsak.

Ko'rib o'tganimizdek, ishq-muhabbat mavzusidagi ushbu she'rda lirik qahramonning hijronzada oshiq hamda ma'shuqaning "dilgir", ya'ni ozor beruvchi dildor ekanligi ularning "boshi tugun" zamona zayli tufayli ayriliqqa mahkum ekanligi ko'pgina mumtoz she'riy ifodalarni eslatadi. Ammo bandma-band osha poetik vositalar tig'izlasha boradi. Shuningdek, ularning mavjud an'analarni eslatgani holda shoirning badiiy mahorati tufayli tamoman yangilangani ko'zga tashlanadi:

Ne imkon, bir tomon yuz tomon bo'ldi,
Orziqib-orziqib ko'z tamom bo'ldi,
Ayroliq gadodin shohjahon bo'ldi,
Puturlar g'aznamga g'aznabon bo'ldi,
Ne imkon, bir tomon yuz tomon bo'ldi.

She'rda bir yo'la qo'llanilgan mumtoz o'rama usuli, takror, tashbeh, jonlantirish kabi o'xshatishlar bir qaraganda an'naviydek ko'rinsa-da, aslida har biri shoirning izlanishlari tufayli poetik yangilangan.

Shoirning Osima ismli qizga lirik murojaati tarzida yaratilgan she'rlar ham muhabbat mavzusida bo'lib, ularda sharqona she'riyat an'analariidan ko'ra G'arb she'riyatiga xos ifodaviylik ko'proq namoyon bo'lgan deyish mumkin. Sababi hozirgi o'zbek she'riyatida ma'shuqaga murojaatda ularning ismlari keltirilsa-da, mumtoz adabiyotda yorni ismi bilan chaqirish odob doirasidan chetga chiqish hisoblanib, unga ko'chma ma'noda qo'llangan *gul*, *oy*, *sanam*, *sarv*, *sumanbar* kabi turli so'zlar orqali poetik murojaat etilgan. Shu bois shoirning Osima turkumidagi bir guruh she'rlari haqida to'xtalar ekan, jumladan, Ibrohim G'ofurov shunday deydi: "Shoirning o'zi uchun suyuqli va qimmatli Osima degan ayolga qarata yozilgan bir qator she'rlarida sirli ohanglar xuddi yonib bo'lgan gulxanning uyulgan cho'g'laridan ko'tarilayotgan qaynoq hovurning tafti odamni kuydiradi, o'ylantiradi. O'quvchi hech bilolmaydi Osima kim? U Pushkinning Nataliyasi, Usmon Nosirning Nasimasi, Nekrasovning Zinasi kabi xaloskor bir parivashmi, telba dunyoning sevgi ma'budasimi? Shoir o'zini anglash va qayta baholashga ehtiyoj tug'ilganda, Osimaga murojaat qiladi. Osima ismining o'zi ham juda shoirona eshitiladi".

Osima,
Ne qilay ko'nglim ushmundoq,
Bir cheti osmonu, bir cheti tuproq.
Bir tunda podshoman ikki kishvarga,
Bir kunda zordirman bir qur nazarga.
Xohla portlatib qo'y, xohla parchala,
Essiz, o'tolmadim shum darichadan.



Osima,
Roziman, mendan asar yo‘q,
Ista, men haqimda boshqa xabar yo‘q.
Ammo dilim erka dilingni istar,
Mendek xushxabar yo‘q,
Mendak xatar yo‘q...

Ko‘rinadiki, she‘rda oshiqning ma‘shuqa, ya‘ni Osimaga bo‘lgan muhabbati nihoyatda ehtirosli, oshiqning ko‘ngli ma‘shuqa ishqida har narsaga tayyor. Ma‘shuqa ishq yo‘lida uning ruhini xohlasa portlatsin, xohlasa parchalasin, oshiq uning barcha sitamlariga tayyor.

Modern she‘riyatdan farqli ravishda modernistik she‘riyat tabiatida subyektivlik, ichki monolog, ramziylik va parchalanish usullaridan faol qo‘llaniladi. Abduvali Qutbiddinning she‘rlarida metaforik talqinning shaklan tor, mazmunan keng keltirilgan obrazlarni uchratamiz. “Nafas” she‘rida esa oshiqning ma‘shuqa diydoriga to‘yishga bo‘lgan intilishini tasvirlashda, inson nafasiga murojaat qiladi va undan badiiy detal sifatida foydalanadi:

Jonim
Nafasingni
Yuzimda
Uxlat...

Modern she‘riyatdan farqli ravishda modernistik she‘riyat tabiatida subyektivlik, ichki monolog, ramziylik va parchalanish usullaridan faol qo‘llaniladi. Abduvali Qutbiddinning she‘rlarida metaforik talqinning shaklan tor, mazmunan keng keltirilgan obrazlarni uchratamiz. Abduvali Qutbiddin o‘zining “So‘z chamani” to‘plamiga kiruvchi asarlari orasida bir guruhini shoir “Nazmdagi nasr” deya nomlaydi. Ushbu bobga kirgan qator she‘riy asarlarida nasr go‘yo nazmda ifodalanadi. Bu turdagi asarlarda she‘riyatga xos liriklikdan ko‘ra nasrga xos epiklik yetakchilik qiladi. Shu boisdan ham ulardagi asarlarning har biri nasrdagi kabi alohida -alohida nomlanadi. Ular “Erdon suvchining Oqdaryoda jon bergani”, “Ali chavandozni qarg‘ish urdi”, “Sodiq sartaroshning o‘g‘li o‘g‘ri bo‘ldi”, “Jabbor Maxsido‘z iblisni tanimadi”, “Laqma Eshqul afsonasi” kabi nomlar bilan yuritiladi. Modern she‘riyatining “bugungi”, “yangi”, “davrga mos” xususiyatlari shoirlarning ijodida man shunday izlanishlarida ko‘zga tashlanadi. “Modern” tushunchasi har bir davrda o‘zgarib borsa ham, she‘r yaratilgan davr uchun u modernlik bahosini yo‘qotmaydi. Abduvali Qutbiddinning she‘riy manzumalarining liriklikdan epiklik bilan omuxta holatda yozilishi bugun uchun modern lirika namunalaridir.

Ushbu she‘rlarda epik voqelik she‘riy shakl qonun-qoidalari asosida bayon etiladi. Ularning har birining kompozitsion qurilishi, sujet elementlari hamda obrazlar tizimi mavjud. Fikrimiz dalili sifatida shoirning “Oybuvi Elmurod Naymanning otiga mindi” asari sujetini keltirib o‘tamiz: Naymanlik

Elmurod Oybuvinini olib qochib ketish payida bo'ldi. Elmurod "Chiyabo'riday alaklashib, qorong'uga o'rganib, Oybuvinini otiga mindirib o'g'rilab ketdi. Bundan g'azabl原因 Oybuvinining ukasi boshliq bir gala yigit Elmurodni quvlab ketadi. Ukasi boshliq yigitlar ularni quvlab besh tunni o'tkazadilar. Lekin ularni topa olmaydi. Ularni "Jar yutdi". Asar yakunida Oybuvi bilan Elmurod murodi maqsadlariga yetadilar.

Abduvali Qutbiddin she'riyati poetikasiga doir mahorat qirralari shoirning "Nazmdagi nasr" turkumidagi yana qator she'riy asarlarida namoyon bo'ladi. Xususan, shoirning "Er don suvchi Oqdaryoda jon berdi" liro-erik asarida quyidagi talqinlar mavjud:

Er don otim, suv tarardim ketmon bo'lib,
Goho yomg'ir, gohi katta osmon bo'lib,
Gashtaklarda gap tashladim sulton bo'lib,
Kurashlarda qo'l uzatdim sirtlon bo'lib.

She'rning quyidagi bandida esa shoir inson umrining keksalik davrini tasvir etishda, tamomila yangicha o'xshatish topishga harakat qiladi:

Endi esa suvga pishgan mushukdayman,
Ikki yog'i nov ulangan teshikdayman,
Ajal niqtab o'ynab turgan oshiqdayman,
Atalaga cho'kib turgan qoshiqdayman.

Inson umrining keksayganda "*Suvga pishgan mushuk...*", "*nov ulangan teshik...*", "*Atalaga cho'kib turgan qoshiqday...*" kabi o'xshatishlar faqat Abduvali Qutbiddin she'riyatiga xos poetik tasvirlar hisoblanadi. Shoirning badiiy vositalardan foydalanishdagi o'ziga xos mahorati o'zbek modern she'riyatining ham milliy adabiy jarayonlardan uzilib qolmaganligidan dalolat beradi.

Shoirning "Biz birgamiz, biz hammamiz" she'rining alohida bir bandi kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Band she'rdagi jamiy 10 bandning orasida alohida shaklda yaratilgan beshinchi band bo'lib, u o'ziga xos uslubda shakllangan. Ushbu band o'z holicha she'rdagi boshqa bandlarga o'xshamaydi. Unda boshqa bandlarda bo'lgan kabi tarqoq misralar mavjud emas. Band o'z holicha boshqa bandlardan farqli o'laroq shoirning vatan madhiga bag'ishlangan lirik chekinishi hisoblanadi. Badda shoir talmeh san'atiga murojaat qilib, u orqali har bir yurtdoshimizning vatanimizni sevishlarining sabablari lirik qahramon tilidan bildiriladi.

Mazkur she'rning boshqa o'rinlarida ilm-ma'rifat rivojida katta e'tiborga loyiq ajdodlarning nomlarini eslash va madh etish orqali faxr hissini tuyadi. Kitobxon qalbida Al Xorazmiyning insoniyat tamadduni uchun qilgan buyuk ishlarini, matematika ilmiga sanoq sonlarni kiritganligidan faxrlanish hissini uyg'otadi. Yoxud kitobxon dunyo ilmida "Ilmi urfon nomi Turon" ekanligini yana bir anglab yetadi. Shoir hali "Dunyo uxlab", "kitob bilmay" yotgan bir zamonda bizning ajdodimiz "Xorazmda sanoq chertib" o'tirgan edi, deya mutafakkir xizmatlarini nechog'lik ulug'laydi. Sharq tamaddunining buyuk uyg'onishdagi



hissasining bugungi kunda ham ahamiyatli ekanligini o'qirman ongida tafakkur qildiradi. Kitobxonga O'zbekiston "milliy kontent"ini yaratish loyihalari olib borilayotgan hozirgi kunda ilm-ma'rifat mavzusida yozilgan she'rlarning badiiy qimmatini ko'rsatib turadi. Qolaversa, mutafakkir ajdodlarning boy ilmiy va ijodiy merosi har davrda ma'rifat uchun yo'l boshchilik qilishini poetik idrok ettiradi. Bu ham Abduvali Qutbiddinning badiiy g'oyaviylik jihatidan ham davr muammolarini aks ettirganligi, bunday mavzularning ko'lamini keng olish modern tabiatiga mos tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Норматов У. Модерн шеъриятида тасвир. / Sharq yulduzi, 1993. – № 10–11. – В. 182.
2. Давронова М. Нозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси. Докторлик (DS) даражаси учун ёзилган диссертация. – Самарқанд-2019. – 252-б.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/abduvali-qutbiddin-she'rlar-ibrohim-gafurov-tafakkur-shakllari.html>. 20.06.2024
4. Қутбиддин А. Бор. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.268.
5. Қутбиддин А. Бор. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.227.